www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 1, 2023

KIBERJINOYATCHILIK TURLARI VA UNDAN HIMOYALANISH MASALALARI

Tursunov Davronbek Baxodir o'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti
magistratura bosqichining "Kiber huquqi" mutaxassisligi talabasi
davron.tursunov.2014@mail.ru

ANNOTATSIYA : Maqolada kiberjinoyatning ahamiyati, ularning turli xil turlari va sodir bo'lish usullari, kiber xavflarni oldini olishda choralarni bayon qilish masalalari taqqoslanadi. Shuningdek, "Kiberjinoyatchilik" ifodasi bo'yicha mualliflar va qonun hujjatlari davlatida berilgan tushunchalarni tahlil qilishadi.

Kalit so'zlar: Kiberjinoyatchilik, kibermakon, kiberterrorizm, kiberbulling, axborot, xavfsizligi, kompyuter tarmoqlari.

Dunyoda axborot texnologiyalarining rivojlanishi, telekommunikatsiya texnologiyalari va internetning jamiyat ichida keng ommalashuvi, axborot tushunchasi, xususan shaxsga doir ma'lumotlar tushunchasi, hozirgi kunda jamiyatning ajralmas muhim qismiga aylanishiga sababchi bo'ldi. Hozirgi kunda, jamiyatda shaxsga doir ma'lumotlar kundan kunga muhim bo'lib bormoqda. Bu vaziyat esa, tarmoqlar orqali har qanday ma'lumotlarni xavfsiz va himoyalangan usullar orqali almashish kerakliligini ko'rsatadi. Bu borada insonlarning internetdan keng foydalanishi va internet olamida foydalanuvchilarning sonini ko'pligi, kibermakonda jinoyatlar soninini oshishiga zamin yaratmoqda.

Jamiyatda sodir etilayotgan kiber taxdidlarning soni va salohiyatini ko'payishi hozirgi zamonda har bir davlat uchun axborot xavfsizligini ta'minlashga bo'lgan zaruriyatni keltirib chiqarmoqda. Shu kabi jinoyatlar bilan kurashish uchun barcha davlarlarning o'zaro hamkorligi eng muhim o'rin tutadi. Sababi, kibermakonda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan jinoyatlar ma'lum bir davlat hudida bo'la turib ham boshqa davlat hududida amalga oshirilishi mumkin. Hozirgi globallashuv davrida bunday jinoyatlarga faqatgina hamkorlik yo'li bilan qarshi turilishi lozim. Bundan tashqari, kiberjinoyatchilarni aniqlashdagi qiyinchiliklar, va shu turdagi jinoyatlarni oldini olishdagi muammolar, hozirgi kunda kiberjinoyatlarning sonini oshishiga imkon bermoqda.

Mamlakatimizda kiberjinoyatlarning sonini oshishi, va kibermakonda jinoyatchilarning yashirina olishi tufayli, ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish, muvaffaqiyatli amalga oshayotgan xorijiy tajribani o'rganish va boshqa mamlakatlar bilan hamkorlik qilish, huquqini muhofaza etuchi organlar faoliyatida hamda insonlar hayotida muhim vazifalardan biridir.

Shuningdek, Tojikiston poytaxti Dushanbe shahrida 2021-yil 17-sentabr kuni bo'lib o'tgan Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining yubiley majlisida, Shavkat Mirziyoev kibermakondagi zamonaviy tahdid va xatarlarga munosib javob qaytarish uchun ShHTning axborot xavfsizligi sohasidagi ekspertlar forumini ta'sis etish to'g'risida tashabbus bilan chiqqanligi bu sohaga oid yanada ko'plab izlanishlar olib borilishi kerakligini ko'rsatmoqda. Xususan, kiberjinoyatlar asosan iqtisodiy maqsadlarni ko'zlagan buzg'unchi va noqonuniy harakatlarni sodir etuvchi shaxs yoki guruhlar tomonidan amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, hozirgi vaqtda kiberjinoyatlarnining sonini tobora ortib borayotgani va virtual olamda sodir etilayotgan kiberjinoyatlarning turlari ham keskin ravishda o'zgarib borayotganini ko'rsatadi. Quyida kiberjinoyatlarning keng tarqalgan turlari keltirib o'tilgan:

Kiberbulling – virtual olamda axborot texnologiyalari va raqamli texnologiyalardan foydalangan holda biror bir shaxs yoki guruh haqida haqoratli xabarlarni internet tarmog'ida tarqatish yoxud joylashtirishni anglatadi.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 1, 2023

Kiberterrorizm – har qanday davlat yoki jamiyat o‘rtasida turli xil qo‘rquv va vahima o‘rnatish maqsadida noqonniy va buzg’unchi haraklarni bitta shaxs yoki guruh tomonidan amalga oshirilishi.

Darhaqiqat, xozirgi vaqtga qadar “kiberjinoyatchilik” tushunchasiga doir ko'plab tushuncha va izohlar berib kelindi. Ko'pgina xorijiy olimlar va tadqiqotchilar, shu sohaga tegishli izlanishlar olib borayotgan xalqaro tashkilotlar hamda O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonunda ham “kiberjinoyatchilik” tushunchasiga aniq izohlarni ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, kompyuter tizimi, tarmog'i, ularga ulanadigan boshqa vositalar orqali yoki ularning yordamida hamda kompyuter tizimi, tarmog'i yoki kompyuter axborotiga qarshi kibermuhitda sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishni kiberjinoyat deb bayon qilishib, yuqoridagi jinoyatlarni kiberjinoyatdan farqli jinoyat deb ta'rif berishadi. Haqiqatan ham, axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar kiberjinoyatlarning bir qismi bo'lganligi va kiberjinoyatlar kengroq tushuncha bo'lganligi sababli ushbu fikrlarga qo'shilish maqsadga muvofiqdir.

Shu o'rinda ta’kidlash kerakki, global tarmoq jinoyatchiligi tushunchasi unga qadar mavjud bo'lgan “kompyuter jinoyatchiligi”, tushunchasi bilan to'la mos kelmaydi va shunga ko'ra mazkur jinoyatchilik turi bugungi kunda “kiberjinoyatchilik” tushunchasi bilan atalib kelinmoqda. Xalqaro ilmiy va huquqiy amaliyotda dastlab "kompyuter jinoyatchiligi" tushunchasi, keyinchalik "kompyuter bilan bog'liq jinoyat", “kompyuter orqali jinoyat sodir etish”, “elektron jinoyatchilik” va “yuqori texnologiyalar jinoyatchiligi”, “virtual jinoyatchilik” tushunchalari ishlatilib, bugunga kunga kelib esa “kiberjinoyatchilik” yoki “global tarmoq jinoyatchiligi” atamasi qo'llanilmoqda. Ushbu tushunchalar yaratilishidan asosiy maqsad ayni paytda internet global tarmog'i orqali sodir etilgan jinoyatchilik chegarasini aniq belgilash va unga qarshi kurashda xos yondashuv zarur ekanligini I.Toraxodjaeva “kiberjinoyatchilikning kompyuter jinoyatchiligidan kengroq tushuncha hisoblanishini” ta'kidlab o'tadi.

Kiberjinoyatlar tushunchasining vaqtga nisbatan o'zaro bog'liqligini yana 1979- yilda Dallas advokatlar assosasiyasining konferentsiyasi tomonidan dastlab kompyuter jinoyatlarining asosiy belgilari o'sha paytdagi mavjud axborot kommunikasiya texnologiyalarining texnik imkoniyatlari yuzasidan belgilanganligi orqali ta'kidlashimiz mumkin. Kiberjinoyatlar yig'indisi, kiberjinoyatchilikni tashkil qiladi va bu L.Bo'ranovning fikriga ko'ra,”kiberjinoyatchilik axborot kommunikasiya texnologiyalari sohasidagi ko'plab turdagi jinoyatlarni o'zida birlashtirgan jinoyatlar majmuidir”. L.Kochkina kiberjinoyatchilikni “kompyuter ma'lumotlari sohasidagi jinoyatlar”, “axborot jinoyatlari”, “kompyuter uskunalari bilan bog'liq jinoyatlar”, “yuqori texnologiyalar kompyuterlaridagi jinoyatlar”, “axborot sohasidagi jinoyatlar” deb, e'tirof etib o'tadi, T.Borodkina ushbu jinoyatlarni axborot sohasidagi jinoyat deb atagandi. Kiberjinoyatlarni tasniflash va ma'lum bir guruhlarga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiq. Biroq, kiberjinoyatlarni har kim turlicha tasniflaydi, xususan, Kasperskiy kompaniyasi “ularni elektron pochta va Internet firibgarligi, shaxsiy ma’lumotlarning firibgarligi (shaxsiy ma'lumotlarning o'g'irlanishi va noto'g'ri ishlatilishi), moliyaviy ma’lumot yoki bank kartasi ma’lumotlarini o’g’irlash, korporativ ma’lumotlarni o‘g‘irlash va sotish, kibertovlamachilik, kriptodjeking, kiberjosuslik kabi turlarga ega ekanligini inobatga olib ularni ikkita guruhga kompyuterlarning o'ziga qaratilgan kiberjinoyatlar va kompyuterdan foydalanilgan holda amalga oshiriladigan kiberjinoyatlarga ajratadi”. Ma’lumotlarni saqlash imkoniyatini mavjudligi buning natijasida kiberjinoyatlar jamoatchilik bilan aloqalari keng kulamni qamrab olishi va ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etishning turli xil usullari borligini ko'rsatadi. Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashda va oldini olishda bitta davlatda qabul qilingan qonun va harakatlar orqali iijobiy natijaga erishib bo’lmaydi. Balki umummiliy xalqaro miqyosda hamkorlik, davlatlar aro ushbu sohaga tegishli yagona huquqiy tizimni ishlab chiqish, xalqaro standartlardan keng foydalanish va tergov jarayonlarida tatbiq etishdan iborat bo‘ladi.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 1, 2023

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бородкина Т.Н., Павлюк А.В. Киберпреступления: понятие, содержание и меры противодействия. Социально-политические науки. № 1. 2018. – С. 135-137;
2. Salaev N.S., Ro'ziev R.N. Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishga oid milliy va xalqaro standartlar. Monografiya., – T.: TDYUU, 2018, – B.139;
3. Toraxodjaeva I. O'zbekistonda Internet tarmog'iorqali sodir etiladigan jinoyatchilikka qarshi kurash muammolari // – T.: Yuridik fanlar axborotnomasi / Vestnik yuridicheskix nauk / Review of law sciences. – ilmiy-amaliy jurnali.2019 (03)- son. – B.128-132;
4. Kochkina L. Definition of the concept “cybercrime”. Selected types of cybercrime // Сибирские уголовнопроцессуальные и криминалистические чтения. 2017. № 3 (17). – С. 2;